

Sharof Rashidov nomidagi SamDU Urgut filiali

Pedagogika va tillarni o'qitish fakulteti

tillarni o'qitish metodikasi kafedrasi assistenti

Yoqubova Safiya Xamdamovna

safiyayakubova1231@gmail.com

+998889300021

O'TVA yo'nalishi I-bosqich talabasi

Mirzoyeva Gulasal Ikrom qizi

e-mailmirzoyevagulasal0212@gmail.com

tel: +998946371510

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada nutq tushunchasi va uning asosiy xususiyatlari ilmiy-nazariy jihatdan tahlil qilinadi. Nutqning aniqligi, mantiqiyligi, ravonligi, ifodaliligi, ta'sirchanligi hamda adabiy til me'yorlariga mosligi kabi muhim belgilariga alohida e'tibor qaratilgan. Shuningdek, nutq xususiyatlarining muloqot jarayonidagi ahamiyati, shaxs nutq madaniyatini shakllantirishdagi o'rni yoritib beriladi. Maqola tilshunoslik, nutq madaniyati va notiqlik san'ati bilan shug'ullanuvchi talabalar hamda pedagoglar uchun foydali manba bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: *nutq, nutq madaniyati, nutqning asosiy xususiyatlari, aniqlik, mantiqiylig, ravonlik, ifodalilik, ta'sirchanlik, adabiy til me'yorlari, muloqot, notiqlik san'ati.*

Nutq so'zlovchi yoki yozuvchi tomonidan shakllantirilgan matnning tashqi ko'rinishi bo'lib, u faqatgina lisoniy hodisa sanalmasdan, balki ham ruhiyat, ham nafosat hodisasi hisoblanadi. Shuning uchun ham yaxshi nutq deyilganda aytilmoqchi bo'lgan maqsadning tinglovchi va kitobxoniga to'liq yetib borishi, ularga ma'lum ta'sir o'tkazishi nazarda tutiladi. Shunga ko'ra nutq oldiga ma'lum talablar qo'yiladi. Bu talablar nutqning mantiq jihatdan to'g'ri, aniq, chiroyli, erkin, maqsadga muvofiq bo'lishidir. Bu belgilar nutqning asosiy sifatleri xususiyatlari deb qaraladi.

1. Nutqning to'g'riligi. Nutqning to'g'riligi uning adabiy tili me'yorlariga muvofiq kelishidir. Bunda quyidagi me'yorlar hisobga olinadi. a) talaffuz me'yorlari

Unli va undosh talaffuzi, so'z tarkibidagi qo'sh va yondosh unlilar talaffuzi, tutuq belgisi so'zlar talaffuzi, kishilarning ism-familiyalari, qisqartma otlar, qo'shma fe'llar, so'z birikmalari, morfologik ko'rsatkichlar, so'z yasovchi, forma yasovchi qo'shimchalar talaffuzlari. b) morfologik me'yorlar: Adabiy til dialekt va shevalardan o'z morfologik me'yorlariga ko'ra ham farqlanadi. Buni biz adabiy tilda so'zlarning kelishiklarda turlanishi, fe'llarning tuslanishi, son-miqdor tushunchalarning ifodalanish usullarida, shuningdek, so'zva so'z shakllarining yasaliş xususiyatlarida ko'ramiz. v) sintaktik me'yorlar: Ega-kesimning mosligi, ikkinchi darajali bo'laklarning ularga bog'lanish qonuniyatlari. 8) Imloviy me'yor

Adabiy til yagona va umumxalq yozuv me'yorlariga tayanadi. Bu me'yorlar maxsus ishlangan va kelishilgan imlo qoidalarida o'z ifodasini topadi. Adabiy til imlo qoidalari bu til yozuvi, yozma shaklida foydalanuvchi barcha uchun umummajburiydir. Orfografik me'yorlar va bunga doir imlo qoidalari adabiy til yozma shaklining takomilida belgilangan omildir. d) lug'aviy me'yorlar:

Har bir xalq tili l o'sha millat a'zolarining erkin va bemalol fikrlasha olishi uchun yetarli bo'lgan so'z boyligiga ega. Bir tilga mansub bo'lgan bir sheva bu tilning boshqa guruh shevalaridan, jonli

so'zlashuv til esa adabiy tilda qo'llanuvchi so'zlar miqdori, xarakteri, shakli, hatto ma'nosiga ko'ra farqlanib turadi. Mana shunday xususiyat adabiy til bilan shevalar, jonli so'zlashuv tili bilan adabiy til doirasida ham mavjuddir. Demak, tildagi barcha so'zlar adabiy tilda qo'llanilavermaydi.

2. Nutqning aniqligi.

Nutqning aniqligi tabiat va jamiyatdagi narsa va hodisalar bilan ularning nutqdagi atamasi bo'lgan materialni o'rtasidagi mutanosiblikni taqozo qiladi:

- a) sinonimlardan o'rinli foydalanish;
- b) antonimlardan to'g'ri foydalanish;
- c) ko'chma ma'noli so'zlarni o'rinli qo'llash;
- d) so'z birikmalarini to'g'ri qo'llash;
- e) iboralarni to'g'ri qo'llash.

O'qituvchi nutqida atamalar va mutaxassislikka oid leksika asosiy o'rinni egallaydi. Ular o'quvchi bilimining dunyoqarashining bilishi hisoblanadi. Fan sifatida o'zbek tilshunosligi ham boy atamalarga ega. Ularning bir qismi tilshunos olimlarimiz tomonidan ijod qilingan bu bir qismi boshqa tillardan to'g'ri yoki kalkalash (nusxa olish) orqali qabul qilingandir.

XX asrda xalqaro ilmiy aloqalar nihoyatda ravnaq topdi. Ayni til hodisasi bir necha atama bilan izohlanadigan holatlar nihoyatda ko'paydi.

Aniqlik nutqning muhim fazilatlaridan biri sifatida qadimdan ma'lum. G'arb mutafakkirlari ham, Sharq olimlari ham aniqlikni nutq sifatlarining birinchi sharti hisoblanganlar. Aristotel "Agar nutq noaniq bo'lsa, u maqsadga erishmaydi" degan bo'lsa, Kaykovas: "Ey, farzand, so'zning yuz va orqa tomonini bilgin. Ularga rioya qilgin, so'zlaganda ma'noli gapir, notiqlikning alomatidir". Agar gapirgan vaqtingda so'zning qanday ma'noga ega ekanligini bilmasang aniqlik nutqning tenbrlarini yaxshilash, diktsiyaga e'tibor berish, tovushlarning past baland tovlanib turishi, unli va undoshlarni talaffuz etish, ohang kabilar.

O'zbek adabiy tilining og'zaki va yozma nutq texnikasi rivojida milliy madaniyatimizning atoqli namoyondalari — shoirlar, yozuvchilar, san'atkorlar va aktyorlarning hissasi beqiyosdir. Ularning ijodiy faoliyati orqali adabiy tilning me'yorlari boyib, nutq madaniyati takomillashib borgan. Og'zaki nutqda talaffuz, ohang, pauza va urg'u muhim ahamiyat kasb etsa, yozma nutqda fikrning aniqligi, mantiqiyli va uslubiy mukammalligi asosiy mezon hisoblanadi. Yozma nutq texnikasi o'z mohiyatiga ko'ra bir qator zarur xususiyatlarga tayangan holda shakllanadi va bu xususiyatlar nutqning sifat darajasini belgilaydi. Nutq madaniyatining eng muhim belgilaridan biri aniqlik hisoblanadi. Rus tilshunosi V. N. Golavin nutqning aniqligini so'zning narsa va hodisalarda aks etgan borliq belgilari bilan qat'iy mos kelishi sifatida izohlaydi. Aniqlik nutqda fikrning tushunarli, ravshan va bir ma'noli ifodalanshini ta'minlaydi. U ikki ko'rinishda namoyon bo'ladi: narsa aniqligi va tushuncha aniqligi. Narsa aniqligi nutqda aks ettirilgan predmet va hodisalarning real borliq bilan mos kelishi orqali namoyon bo'ladi. Agar nutqda mavjudlik aniq, to'g'ri va buzilmasdan ifodalansa, bunday nutq aniq nutq hisoblanadi. Biroq mukammal nutq yaratishda faqat narsa aniqligi yetarli emas, balki tushunchaviy aniqlik ham muhimdir. Tushuncha aniqligi fikrning mazmunan to'g'ri, mantiqan izchil va semantik jihatdan aniqligini ta'minlaydi. Mashhur adib Abdulla Qahhor nutqqa bo'lgan yuksak talabni o'z ijodiy tajribasi orqali ifodalab, so'z ustida ishlash mashaqqati va mas'uliyatini alohida ta'kidlagan. Bu fikrlar nutq aniqligi tasodifiy emas, balki izchil mehnat va chuqur tafakkur mahsuli ekanini ko'rsatadi. Aniq nutq yaratish so'zlovchi va yozuvchidan tilning sinonimik imkoniyatlarini mukammal bilishni talab etadi. Sinonimik qatorlardan maqsadga muvofiq variantni tanlash fikrni yanada ravshan va ta'sirli ifodalashga xizmat qiladi. Shuningdek, so'zlarning ko'chma va otlashgan ma'nolarini chuqur anglash,

taxminiy va noo'rin qo'llashlardan qochish zarur. So'zning ko'p ma'noliligiga beparvo munosabat nutqda noaniqlik va mantiqiy buzilishlarga olib keladi. Ayniqsa, ko'p ma'noli so'z va omonimlardan foydalanishda ularning qaysi ma'noda qo'llanayotgani aniq tasavvur qilinishi, adabiy til me'yorlariga qat'iy amal qilinishi lozim. O'qituvchi va mutaxassis nutqi o'zbek adabiy tili me'yorlariga to'la mos bo'lishi zarur. Adabiy til grammatik qurilishining barqarorligi, lug'aviy boyligi va uslubiy imkoniyatlari bilan shevalardan ustun turadi. Aynan adabiy me'yorlar tilning umumxalq miqyosida bir xilda qo'llanishini ta'minlaydi va nutq madaniyatining yuksalishiga xizmat qiladi. Nutq sifatlarini belgilovchi muhim omillardan yana biri mantiqiylikdir. Mantiqiy nutq yaxlit tizim asosida qurilib, fikrlarning izchil rivoji bilan ajralib turadi. Bunda har bir so'z, ibora va gap umumiy mazmunga bo'ysundiriladi. Nutqning mantiqiyliги aniqlik va to'g'rilik bilan uzviy bog'liq bo'lib, grammatik yoki leksik xatolar mantiqiylikni izdan chiqaradi. Mantiqiy izchillikning buzilishi tinglovchi yoki o'quvchining fikrni to'liq anglamasligiga sabab bo'ladi. Mantiqiylikni predmet mantiqiyliги va tushuncha mantiqiyliгiga ajratish mumkin. Predmet mantiqiyliги til birliklarining o'zaro ichki mosligida namoyon bo'lsa, tushuncha mantiqiyliги fikr tuzilishi va mazmuniy bog'liqlik bilan belgilanadi. Nutqning mantiqiy bo'lishi uchun ekstralingvistik va lingvistik shartlarga amal qilish talab etiladi. Ekstralingvistik shart to'g'ri fikrlash qonuniyatlarini egallashni nazarda tutsa, lingvistik shart til vositalarining mazmunan va shaklan uyg'un qo'llanishini ta'minlaydi. Nutq madaniyatida soflik alohida ahamiyatga ega. G'ayriadabiy unsurlardan xoli bo'lgan nutq sof nutq sanaladi. Dialektalizmlar, jargon va argolar, noo'rin o'zlashmalar, vulgarizmlar hamda parazit so'zlar nutq sofligiga putur yetkazadi. Shu bois adabiy til me'yorlariga qat'iy rioya qilish nutq madaniyatining muhim talabi hisoblanadi. Nutqning ta'sirchanliги esa uning tinglovchi yoki o'quvchi ruhiyatiga ta'sir ko'rsatish qobiliyati bilan belgilanadi. Ta'sirchan nutq e'tiborni jalb etadi, qiziqishni oshiradi va fikrni dalillar hamda misollar asosida ishonarli tarzda bayon etadi. Tabiiylik, obrazlilik va uslubiy moslik ta'sirchan nutqning muhim belgilaridir. Shu jihatdan, nutq aniqliги, mantiqiyliги, sofligi va ta'sirchanliги o'zaro chambarchas bog'liq bo'lib, ular birgalikda yuksak nutq madaniyatini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, nutq inson tafakkuri va ijtimoiy faoliyatining muhim mahsuli bo'lib, u til birliklarining maqsadga muvofiq, me'yoriy va mantiqiy qo'llanishi orqali namoyon bo'ladi. Nutqning aniqliги, mantiqiyliги, sofligi va ta'sirchanliги uning asosiy sifatleri sifatida baholanadi hamda mazkur xususiyatlar nutqning tushunarli, ishonarli va samarali bo'lishini ta'minlaydi. Aniqlik narsa va tushunchalarning real borliq bilan mosligini ifodalasa, mantiqiylik fikrlar izchilligi va mazmuniy yaxlitlikni ta'minlaydi. Soflik nutqni g'ayriadabiy unsurlardan xoli holda shakllantirishni talab etsa, ta'sirchanlik nutqning tinglovchi yoki o'quvchi ongiga emotsional va intellektual ta'sir ko'rsatish qobiliyatini belgilaydi. Nutqning ifodalanishi tilning leksik, grammatik va uslubiy imkoniyatlari bilan uzviy bog'liq bo'lib, so'zlovchi yoki yozuvchidan yuqori darajadagi nutqiy madaniyat va mantiqiy tafakkurni talab etadi. Adabiy til me'yorlariga amal qilish, so'z tanlashda aniqlik va ehtiyotkorlikka rioya etish, fikrni izchil bayon qilish nutq samaradorligini oshiradi. Shunday ekan, nutqning o'ziga xos xususiyatlarini ilmiy asosda o'rganish va ularni amaliy nutq jarayonida qo'llash til madaniyatini yuksaltirish, ta'lim jarayonida samaradorlikni oshirish hamda shaxsning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. LA.Karimov. Milliy Istiqloq mafkurasi-xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka Ishonchdir. T., "O'zbekiston", 2000.

2. R.Qo'ng'urov. Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari. T.. "O'qituvchi", 1992
3. A.G'ulomov, B.Qobilova. Nutq o'stirish mashg'ulotlari. T., "O'qituvchi", 1995.
4. G. Abduraxmonov, S.Mamajonov. O'zbek tili va adabiyoti. "O'qituvchi" , 1996.

